



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

### SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI

**Akramov Adahamjon Abarjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti Ekologiya kafedrasida o'qituvchisi,  
adhamjonakramov@gmail.com*

**Maxmudova Barchinoy Rasuljon qizi**

*FDU Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi II-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaharlarda aholi sonining ortib borishi bilan atmosfera havosining ifloslanishi va uning inson salomatligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek shaharlarda texnogen omillar ta'sirini kamaytirish, atrof-muhit holatini yaxshilash, inson salomatligini saqlashda chora tadbirlar belgilangan.

**Kalit so'zlar:** ekologik xavfsizlik, atmosfera havosi, zararli va zaharli moddalar, moddalar almashinuvi, inson salomatligi, havo namligi.

Aholining shaharlarda zich yashashi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilishi bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "...Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, uning zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkonini beradi" - deb ta'kidlagan.

Bugungi kunda sanoat korxonalarining turli chiqindilarni atrof-muhitga chiqarishi oqibatida shaharlar atrofida ekin dalalari, o'tloq, yaylov, suv havzalari va o'rmonlar zarar ko'rmokda. Shaharlarda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv va yer osti boyliklaridan foydalanish o'ta yuqori darajada bo'lgani uchun ham ularda tabiiy ob'yektlarning holati to'lig'icha antropogen o'zgargan ko'rinishdadir. Ularda tabiiy jarayonlar kishilarning xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog'langandir.

Ma'lumki, shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi tufayli quyosh nurlarining qaytishi kuchayadi. Ayniqsa, ultrabinafsha nurlarining yetishmasligi kishilar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nurlar teridagi zararli mikroorganizmlarni yo'qotadi, tanada mineral moddalar almashunuvini ta'minlaydi, organizmni turli kasalliklarga nisbatan bardoshlilikini orttiradn.

Tadqiqotlar ultrabinafsha nurlarni meyorida olgan bolalar, uni yetarlicha olmagan bolalarga nisbatan shamollashga 10 marta kam chalinishini isbotlaydi. Shahar aholisi salomatligiga, ayniqsa, atmosfera havosi va uning holati kuchli ta'sir



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

etadi. Buyuk allomamiz Abu Ali Ibn Sino: "Agar havoda chang va g'ubor bo'lmasa, inson ming yil yashardi", deya yozganida katta hikmat bor. Shaharlardagi o'ziga xos mikroiklim: harorat va namlikning o'zgarishi kishilar organizmida issiqlik hamda modda almashinuviga ta'sir etib, nafas olish, yurak faoliyati, qon aylanishida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sanoatlashgan shaharlarda aholi o'rtasida qon aylanish jarayonining buzilganligi aniqlangan bo'lib, 50% o'lim aynan ushbu kasallik bilan bog'liqdir.

Umuman quyosh nuri, kislorod yetishmasligi, harorat va namlikning o'zgarishi insonning mehnat qobiliyatini pasayishiga, kayfiyatini buzilishiga, qolaversa, uyqusizlikka sabab bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yirik sanoat shaharlari havosida inson uchun zararli bo'lgan aerozol zarrachalar mikdori 10-20 marta ko'p bo'lib, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar ham 5-10 marta ortiq bo'lishi aniqlangan. Ifloslangan havo o'pkaga to'liq yetib bormaydi, zararli va zaharli moddalarni o'pkada yig'ilishi nafaqat o'pkani, balki organizmning boshqa a'zolari va to'qimalari faoliyatini ishdan chiqaradi. Buning oqibatida aholi o'rtasida astma, emfizema, yuqori nafas yo'llari kabi qator kasalliklar ko'payadi.

Shaharlarda yashil ekinzorlarning radiatsion haroratni pasaytirishda roli katta. O'simliklarning barglari o'zidan har xil darajada issiqlik nurini va quyosh spektrini yutib, qaytarib va o'zidan o'tkazish xususiyatiga ega. Masalan yosh emanzor quyosh radiatsiyasining 96,8 %, qarag'ayzor 96 %, archa, terak va emanlar aralash o'rmon 97-98 % nurlarni ushlab qoladi.

Asfalt va binolarning devorlarini to'sadigan, baland bo'yli, qalin gorizontalar birikib o'sadigan, pastki qismidan shamol yuradigan yashil daraxtlar issiqdan yaxshi himoya qiladi. Quyosh nuri ta'sirida o'simliklarning bargi isib ketadi. Soyadagi barglar harorati atrof-muhit haroratidan past bo'ladi, chunki o'simlik barglarida bug'lanish darajasi yuqori bo'ladi.

Katta yoshdagi daraxt barglari orqali bir kunda 300 litrgacha suvni bug'lantirishi mumkin. Havo namligini 15 % ga ortishi, haroratning 3,5 S0 gacha pasayishini ta'minlaydi. Daraxtlarning suvni bug'lantirish hajmi uning egallagan maydon yuzasidan 20 barobar ortiq bo'ladi. 1 gektar maydondagi o'rmondan o'suv davri mobaynidan 3 mln kg gacha namlik bug'lanadi. Yilning quruq mavsumida o'simliklar orasida havoning namligi ochiq maydondagiga nisbatan 4-7 % yuqori bo'ladi. Aksincha, yog'ingarchilik mavsumida esa namlik pasayadi. Bunga sabab havo quruq bo'lganda barglarda suv bug'latish kuchayib, aksincha nam havoda barglar suvni o'ziga tortib oladi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

Bugungi kunda shaharlarda texnogen omillar ta'sirini kamaytirish, atrof-muhit holatini yaxshilash, inson salomatligini saqlashda, me'moriy jihatdan o'zgacha chiroyga ega shahar landshaftini hosil qilishda shahar ko'chalari va uniing atrofidagi magistral yo'llar, halqa yo'li hamda shahar markazlari, istirohat bog'lari, madaniyat saroyi, dam olish maskanlarida manzarali va ayni xududning iqlimiga mos daraxt va butalarni introduksiya qilingan. Shahar ko'chalarida kashtan, eman, lola daraxti, qora qarag'ay, Qrim qarag'ayi, cheryomuxa, juka, magnoliya o'simliklaridan foydalangan holda fitodizaynlar va alleyalar hosil qilish, bu kompozitsiyalardan foydalangan holda ko'kalamzorlashtirilishi talab etiladi. Turlarni tanlashda daraxtlarning soylatish xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi. Masalan jo'ka va kashtan daraxtlarining soyasi, shumtol va ok akatsiyaga nisbatan quyuproq bo'ladi. Shaharlarda quruq mavsum sharoitida soylatish maqsadida jo'ka va kashtan daraxtlarini ekilishi tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni 21-aprel 2017 yil Toshkent
2. Otaboyev Sh., Hidoyatova Z. Ekologiya gigiyena va sihat-salomatlik. Toshkent "Fan" nashriyoti, 2007.
3. Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.
4. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.
5. Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVIY O'G'ITLAR TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 4-7.
6. Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O'SIMLIKLAR OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA'SIRI, HAMDA UNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 947-953.
7. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА РАСТИТЕЛЬНЫЙ И ЖИВОТНЫЙ МИР. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 547-554.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.
9. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.
10. Xolikulov, M. R. (2020). THE HERB (*Capparis spinosa* L) IS AN IMPORTANT HONEY PLANT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 165-170.
11. Холикулов, М. Р., & Хамидов, Г. Х. ФЛОРИСТИЧЕСКИЙ СОСТАВ МЕДОНОСНЫХ РАСТЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ПУТИ ИХ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ.
12. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). HYDROCHEMICAL INDEXES AND PHYTOPLANKTON COMPOSITION OF DIFFERENT TYPES OF WATER BODIES IN THE FERGANA VALLEY. *O 'ZBEKISTON BIOLOGIYA JURNALI*, 36.
13. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ НЕКУЛЬТИВИРУЕМЫХ РЫБ В ВЫРОСТНЫХ ПРУДАХ РЫБХОЗА «НАМАНГАН БАЛЫК». *Academic research in educational sciences*, 2(5), 726-733.
14. Mukimov, M. K. A., Mirzakhililov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.
15. Turdaliyev, A., Asqarov, K., & Xodjibolayeva, N. (2019). Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(4), 53-57.